

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Statistika
agentligi direktori o‘rinbosari

Z. Ziyayev

2024-y. “27” *iyun*

INTERAKTIV XIZMATINING REGLAMENTI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGINING RASMIY VEB-SAYTIDA “OCHIQ MA’LUMOTLAR” BO‘LIMIDA RASMIY STATISTIKA INDIKATORLARIDAN FOYDALANISH INTERAKTIV XIZMATINI TAQDIM ETILISHI.

1. Xizmatning ta’rifi (pasport)

1.1. Xizmat nomi

Statistika agentligining rasmiy veb-saytida “Ochiq ma’lumotlar” bo‘limida rasmiy statistika indikatorlaridan foydalanish interaktiv xizmatini taqdim etilishi.

1.2. Xizmat natijasi

Muayyan davrlar uchun O‘zbekiston Respublikasi va uning hududlari, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy holatning asosiy statistik ko‘rsatkichlari haqida axborot.

1.3. Xizmat ko‘rsatish organlari va blankalarni olish joylari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy veb-sayti, Qoraqolpog‘iston Respublikasi Statistika boshqarmasi, viloyatlar va Toshkent shahar Statistika boshqarmalari rasmiy veb-saytlari.

1.4. Huquqiy asoslar

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori.

1.4.Xizmat qabul qiluvchilari

Manfaatdor davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar.

1.5. So‘rov berish muddatlari

So‘rov berish muddati o‘rnatilmagan.

1.6. Bajarilish muddati

Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy veb-saytiga, Qoraqolpog‘iston Respublikasi Statistika boshqarmasi, viloyatlar va Toshkent shahar Statistika boshqarmalari rasmiy veb-saytlariga murojaat qilinganda – onlayn rejimda.

1.7. Tasdiq berilish muddati

O‘rnatilmagan.

2. Xizmat qabul qiluvchilarini habardor qilish

2.1. Axborot tarkibi va hajmi

O‘zbekiston Respublikasi va uning hududlari, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari:

- Milliy hisoblar;
- Narh va indekslar;
- Investitsiyalar;
- Qurilish ishlari;
- Tashqi iqtisodiy faoliyat;
- Ichki savdo;
- Sanoat;
- Qishloq xo‘jaligi;
- Ekologiya;
- Xizmatlar;
- Demografiya;
- Mehnat bozori;
- Aholi turmush darajasi;
- Ijtimoiy soha;
- Kichik biznes va tadbirkorlik;
- Korxonalar va tashkilotlar demografiyasi;
- Huquqbuzarlik;
- Atrof-muhit;
- Raqamli iqtisodiyot

2.2. Katta miqyosda xabardor qilish

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytining “Ochiq ma’lumotlar” va “Rasmiy statistika” bo‘limlarida e’lon qilib boriladi.

2.3. So‘rov bo‘yicha xabardor qilish

Shaxsan: 9-00 dan 18-00 gacha xizmat bo‘yicha har qanday savol yuzasidan og‘zaki konsultatsiya (10 daqiqadan ortiqmas). Murojaat uchun telefon raqami: (71) 203-80-26.

Telefon orqali: 9-00 dan 18-00 gacha xizmat bo‘yicha har qanday katta xajmdagi aniq axborot berilishini talab qilmaydigan savol yuzasidan og‘zaki konsultatsiya (5 daqiqadan ortiqmas). Murojaat uchun telefon raqami: (71) 203-80-26.

Elektron pochta orqali: onlayn rejimda info@stat.uz elektron pochtasiga yozma so‘rovlarni keng tarqalgan matn formatlarida (oddiy matn, birlashtirilgan fayl DOC, RTF, PDF) yoki kelishilgan boshqa formatlarda qabul qilish, 9-00 dan 18-00 gacha yozma hujjatlarni odiy matn formatida, birlashtirilgan fayl DOC, RTF, PDF formatida yoki kelishilgan boshqa formatlarda uzatish.

Statistika agentligi rasmiy saytiga shaxsiy murojaat – onlayn rejimda.

2.4. Xizmat ko'rsatish joyi haqida xabardor qilish

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Mirzo-Ulug'bek tumani, 100192, Mustaqillik shoh ko'chasi 63.

2.5. Foydalaniladigan hujjatlar blanklari (shakllar)

Tasdiqlangan va o'rnatilgan tartibdagi jadval namunalari.

3. Xizmat ko'rsatish

3.1. Ish vaqti

Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytiga murojaat;
Ish tartibi: onlayn rejimda.

3.2. Kutish shartlari

Xizmat onlayn rejimda ko'rsatiladi.

4. Xizmat ko'rsatish tartibi

4.1. Shart bo'lgan hujjatlar

Talab etilmaydi.

4.2. Xizmat haqi

Xizmat bepul amalga oshiriladi.

4.3. Interaktiv xizmatining ko'rsatilish bosqichlari

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari haqida axborot olish uchun, www.stat.uz saytiga kirish lozim. Saytning yuqori qismidagi "Ochiq ma'lumotlar" bo'limini tanlash kerak. Qiziqtirayotgan statistika sohasi tanlanadi.

4.4. Interaktiv xizmatini ko'rsatishda idoraviy ichki tartiblar

1. Har oy, chorak va yil asosida statistika tarmoqlari bo'yicha yakunlarni tashkil etish;
2. Hisobot davri uchun asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni shakllantirish;
3. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarini Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida e'lon qilish.

4.5. Rad etish asosi

O'rnatilmagan.

5. Sifat ta'minoti

5.1. Sifat parametrlari

Xizmat ko'rsatish sifati taqdim etilayotgan xizmatlar uchun o'rnatilgan tartibga muvofiq.

5.2. Sifatsiz xizmatga shikoyat

Shikoyat, o'rnatilgan tartibda statistika organlariga yozma murojaat orqali yoki Statistika agentligining rasmiy saytidagi qayta aloqa shakli orqali amalga oshiriladi.

**5.3.Statistika ma'lumotlarini taqdim etish bo'yicha
interaktiv xizmatini ko'rsatish sxemasi**

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Murojaatchi <i>(yuridik yoki jismoniy shaxs)</i>	Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytiga bevosita murojaat etadi.	O'z xohishiga ko'ra
2-bosqich	Statistika agentligi	O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarini agentlik saytida yangilab boradi.	Doimiy
3-bosqich	Murojaatchi	Statistika agentligi saytida "Ochiq ma'lumotlar" yoki "Rasmiy statistika" bo'limida qiziqtirayotgan statistika sohasini tanlaydi	O'z xohishiga ko'ra
4-bosqich	Murojaatchi	Tanlangan statistika sohasi bo'yicha jadval ma'lumotlarini Excel yoki PDF formatida yuklab oladi.	Real vaqt rejimida